

BANK MOLIYAVIY AKTIVLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Nazirov Suxrob Ilyos o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda moliyaviy aktivlar ularning hisobini takomillashtirish masalalari o'rganilib, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Moliyaviy aktivlar — bu banklarning daromad olish uchun foydalanadigan mablag'lar bo'lib, ular kreditlar, investitsiyalar, kassa vositalari va boshqa turdagi aktivlar shaklida bo'lishi mumkin. Bank moliyaviy aktivlarini hisobga olishda yuzaga keladigan masalalar va qiyinchiliklar, ayniqsa, risklarni boshqarish, aktivlarning to'g'ri baholanishi va ularni samarali boshqarish bo'yicha yangi yondashuvlar zaruriyatini ko'rsatmoqda

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy aktivlari, aktivlardan foydalanish samaradorligi, kredit, rentabellik, risklarni boshqarish, raqamli tahlil,

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotida bank tizimi real sektorni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy aktivlaridan samarali foydalanish nafaqat tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki butun iqtisodiyotning investitsiya salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bank-moliya tizimini isloh qilish hamda raqamli texnologiyalar asosida yangi moliyaviy mahsulotlar joriy etish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va moliyaviy tartibga solish tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da bank tizimida samaradorlik, shaffoflik va raqobatbardoshlikni oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan¹.

Mazkur hujjatlar moliyaviy aktivlarining samarali boshqaruvi va ularni foydali joylashtirish ko'rsatkichlarini takomillashtirish dolzarb ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Ayni paytda, global moliya bozoridagi o'zgarishlar, raqamli bank xizmatlarining jadal rivojlanishi va iqtisodiy barqarorlik talablarining oshishi bank aktivlarini boshqarish metodologiyasini chuqur tahlil qilish va uni milliy sharoitga moslashtirishni talab etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi farmon, PF-60, 28.01.2022. <https://lex.uz/docs/5841063>

Shu bois, moliyaviy aktivlarining samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish O'zbekiston bank sektorining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Mavzuning dolzarbligi

Tijorat banklarining moliyaviy aktivlari tarkibi yildan-yilga murakkablashib bormoqda. Kredit portfeli, investitsiyalar, likvid mablag'lar va boshqa aktiv turlari hajmining ortishi bilan birga, ularni boshqarish xarajatlari ham o'smoqda. Xizmat turlari kengaygani sari operatsion va boshqaruv xarajatlarning oshishi bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois aktivlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari – aktivlarning rentabelligi (ROA), foyda bilan ta'minlangan aktivlar ulushi, aktivlar aylanish tezligi, likvid aktivlar ulushi kabi indikatorlarni faoliyat turlari bo'yicha chuqur tahlil qilish zarur.

Bu tahlil jarayonida, aniq natijalarga erishish uchun, Activity-Based Costing (ABC) modeli qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Ushbu model xarajatlarni bevosita ularni yuzaga keltirgan bank faoliyatlariga taqsimlab, qaysi yo'nalishlarda aktivlar yuqori rentabellik bilan ishlayotganini, qaysi yo'nalishlarda esa samaradorlik pastligini aniqlash imkonini beradi. Natijada bank boshqaruvi aktivlardan maksimal darajada foyda olish, resurslarni optimal taqsimlash va past samarali yo'nalishlarni qisqartirish bo'yicha asosli strategik qarorlar qabul qilishi mumkin bo'ladi².

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, aktivlarni aniq faoliyat turlari kesimida hisobga olish va baholash, bank operatsiyalarini rejalashtirish va nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, KPI va byudjetlashtirish kabi tizimlar aktivlarni maqsadli va natijaviy boshqarishda samarali vosita sifatida tan olingan³.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar kontekstida, aktivlarni boshqarishda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Bunda "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish

Tijorat banklari moliyaviy va operatsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida turli xarajatlarga duch keladi. Bu xarajatlar bankning moliyaviy barqarorligi va foydalilik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bank aktivlarining samarali boshqarilishi ham muhim omil hisoblanadi. Aktivlarning sifatli boshqarilmasligi yoki kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi natijasida bank aktivlarining qadrsizlanishi yuzaga keladi.

Bank moliyaviy aktivlarining qadrsizlanishi – bu aktivlarning haqiqiy qiymati kamayishi, ular bo'yicha kutilayotgan daromadlarning pasayishi yoki yo'qolib ketish

² Khadivar, M. (2024). Application of Activity-Based Costing in Commercial Banks: A Case Study in Service Cost Allocation. SSRN. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4710786

³ Obara, L. (2012). Budgetary control and performance evaluation: A case of selected banks. African Journal of Accounting, Economics, Finance and Banking Research.

holatidir. Qadrsizlanish bir qator sabablarga ko'ra sodir bo'lishi mumkin. Qarzdorlarning moliyaviy qobiliyati yomonlashishi, kreditlarni qaytarishdagi kechikishlar yoki umuman qaytarilmasligi, moliyaviy bozorlar beqarorligi, valyuta kursining o'zgarishi, aktivlar sifatiga ta'sir etuvchi tashqi iqtisodiy va ichki operatsion muammolar misol bo'la oladi. Bu holat bank aktivlarining umumiy qiymatini pasaytiradi, kapital yetarliligini zaiflashtiradi va kredit portfeli rentabelligini kamaytiradi.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, bank moliyaviy aktivlari samaradorligi tushunchasi keng iqtisodiy mazmunga ega: u faqat moliyaviy natijalarni emas, balki bankning bozor qiymati, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli barqarorligini ham belgilaydi. Shu bois, bank aktivlarining qadrsizlanishini ilmiy asosda baholash va strategik boshqarish bank faoliyatining moliyaviy barqarorligi, risklarni kamaytirish hamda xizmat sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Natijada, aktivlarning qadrsizlanishi va ulardan samarali foydalanishni tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda va u O'zbekiston bank tizimida ham amaliy ahamiyatini tobora oshirmoqda.

Bank moliyaviy aktivlari — bu tijorat bankining moliyaviy resurslari va iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy tarkibiy qism bo'lib, ular bankning daromad keltiruvchi va operatsion faoliyatini ta'minlovchi vositalar majmuasini tashkil etadi. Iqtisodiy mazmunda aktivlar nafaqat balansda aks etuvchi moddiy va moliyaviy resurslarni, balki bankning intellektual kapitali, texnologik infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Nazariy jihatdan qaralganda, bank aktivlarining qadrsizlanishi ularning qiymati pasayishi, qaytarilish darajasining yomonlashishi yoki bozor sharoitidagi salbiy omillar ta'sirida aktivlarning real qiymati kamayishini anglatadi. Shu bois, aktivlardan samarali foydalanish deganda mavjud resurslardan eng yuqori daromad olish, risklarni maqbul darajada boshqarish va likvidlikni ta'minlash orqali bankning umumiy moliyaviy samaradorligini oshirish tushuniladi. Ushbu jarayon iqtisodiy nazariya, moliyaviy menejment va bank ishi bo'yicha klassik hamda zamonaviy konsepsiyalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Aktivlarning qadrsizlanishini to'g'ri baholash va hisobini takomillashtirish bank balansining ishonchliligini oshirish, rentabellikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bank aktivlarining qiymatini va ulardan keladigan daromadlarni to'g'ri hisob-kitob qilib rejalashtirish bank faoliyatining samaradorligiga olib kelishi, aktivlar qiymatini noto'g'ri hisoblash, ularni joylashtirish bankning moliyaviy ahvolidagi qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Xulosa va Taklif

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari moliyaviy aktiv operatsiyalarining asosiy maqsadi yuqori foyda olish va bank faoliyati likvidligi hamda barqarorligini ta'minlashdan iborat. Bank moliyaviy aktivlarining qiymatini va ulardan keladigan

daromadlarni to'g'ri hisob-kitob qilib rejalashtirish bank faoliyatining samaradorligiga olib kelishi, aktivlar qiymatini noto'g'ri hisoblash, ularni joylashtirish bankning moliyaviy ahvolidagi qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. ALM va RBAM modellarini to'liq joriy etish. Aktivlarni risk va likvidlik darajalari bo'yicha chuqur tahlil qilish bank balansida yuqori konsentratsiyaga ega bo'lgan nolikvid aktivlarni aniqlashga va ularni diversifikatsiya qilish orqali samaradorlikni oshirishga imkon beradi.

2. Byudjetlashtirish va KPI tizimlarini integratsiya qilish. ROA, ROE, NIM va aktivlar aylanish tezligi kabi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilish hamda ularni byudjetlashtirish tizimi bilan uyg'unlashtirish zarur. Bu aktivlardan foydalanish samaradorligini kompleks baholash, rahbarlar va ijrochilar faoliyatini aniq natijalar bilan bog'lash imkonini beradi.

3. Aktivlarni boshqarishda raqamlashtirishni kuchaytirish. Moliyaviy monitoringni va aktivlar tarkibini tahlil qilish jarayonlarini raqamlashtirish, IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda analitik platformalardan foydalanish orqali bank aktivlarini real vaqt rejimida kuzatish va risklarni tezkor boshqarish imkoniyati yaratiladi.

4. Ichki auditning rolini kuchaytirish. Ichki va tashqi audit jarayonlarida ALM hamda KPI ko'rsatkichlaridan foydalanish bank balansidagi risklarni aniqlash va ularni samarali boshqarishga yordam beradi. Bu esa aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda hisob siyosatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. 2020 yil 12 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga muljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.
2. Omonov, A. A., Koraliyev, T. M. *Dengi i banki*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 412 p.
3. Azizov, U., Karaliyev, T., Bobokulov, T. *Bankovskoe delo: Uchebnoe posobie*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 356 p.
4. Tashxodjaev, M. *Korporativ boshqaruvni takomillashtirish*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014. — 298 p.
5. Jumayev, N. H. *Bank ishi va moliya bozorlari*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. — 384 p.
6. Abduraxmonov, Q. X. *Iqtisodiyot nazariyasi*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 520 p.
7. King, B. (2018). *Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank*. London: Marshall Cavendish International.
8. Krishnan, S. (2014). *The Power of Mobile Banking: How to Profit from the Revolution in Retail Financial Services*. Hoboken: John Wiley & Sons.
9. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2018). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies Is Changing the World (Updated ed.)*. New York: Portfolio.
10. KPMG. (2022). *Fintech and Digital Cost Transformation Report*. Available at: <https://home.kpmg>